

IJRO BEZAK TURLARINI NOTALASHTIRISHDA XISSA QO'SHGAN USTOZLAR

Shodiyev Shohruh

Buxoro Davlat Universitetining Pedagogika Institutining

Musiqa ta'lif yo'nalishi I-bosqich magistranti

Ilmiy rahbari: Farrux Nurullayev P.f.f.d. (PhD) Dotsent

Anotatsiya: Maqolada ijrochilik yo'llari, ijro bezak turlari, xalq va mumtoz kuylarining notalashtirish asoslari, ko'p ovozli ansambl va orkestrlar faoliyati, xalq va mumtoz kuylarini notalashtirishda xissa qo'shgan ustozlar faoliyati haqida so'z boradi.

Аннотация: В статье рассказывается о способах исполнения, видах оформления исполнения, основах нотации народных и классических напевов, деятельности многоголосных ансамблей и оркестров, деятельности педагогов, внесших свой вклад в нотацию народных и классических напевов.

Anotation: The article talks about ways of performance, types of performance decoration, basics of notation of folk and classical tunes, activities of multi-voice ensembles and orchestras, activities of teachers who contributed to the notation of folk and classical tunes.

Kalit so'zlar: ijrochilik, san'at, ansambl, orkestr, musiqa, kuy, qo'shiqlar, qashqar rubobi, maqom, xalq cholg'ulari, ijro bezaklari.

Tarixiy manbaalardan ma'lumki, musiqa ijrochiligi san'ati juda qadim davrlardan buyon mavjud bo'lib, bizgacha juda uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan holda, o'zining hozirgi mukammal ko'rinishida yetib keldi. Bir qancha yozma manbaalarda ming yillar davomida musiqa, musiqa cholg'ulari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ijrochilik san'ati, shuningdek mohir sozandalar haqidagi qimmatli ma'lumotlar mavjud.¹ O'sha davrlarda Markaziy Osiyo, xususan hozirgi O'zbekiston hududida ijrochilik san'ati og'zaki an'anada rivojlanib keldi. XX asrning 20-30 yillardan boshlab mamlakatimizda turli musiqiy o'quv yurtlari dastlab Turkiston Xalq Konservatoriysi (1918) va uning filiallari, Toshkent davlat musiqa bilim yurti (1924), Namangan va Buxoro musiqa bilim yurti (1932), Toshkent Davlat Konservatoriysi (1936) hamda bir qator musiqa maktablarining tashkil qilinishi va yillar davomida asta sekin ko'plab har-xil ijodiy jamoalar, xususan ansambllar, unison orkestrlar va nihoyat ko'p ovozli professional orkestrning tashkil etilishi o'zbek xalq cholg'ulari ijrochilik tarixida yangi davrni boshlab berdi. Ayniqsa,

¹ З.НАЖМИДДИНОВ «Мутахасислик фани бўйича ўқув услубий қўлланма» Наманган 2014

poytaxtimizdagi ko‘zga ko‘ringan ansambllar, orkestrlarning ijodiy faoliyati gullab yashnadi. Bu davrda ijrochilik san’ati rivojlanib, ko‘plab yutuqlarga erishildi. Endi o‘zbek sozlarining navolari nafaqat O‘zbekistonda balki juda ko‘plab boshqa mamlakatlarda ham yangray boshladi. O‘zbek musiqasi jahon sahnalarida namoyish qilinib, tinglovchilar tomonidan yuksak baholandi. Sozanda ijrochilarning mamlakatimizdan tashqarida bo‘lib o‘tgan tanlov va jahon festivallarida qatnashishlari hamda sovrindor bo‘lishlari ijrochilik san’atimizni yuqori pog‘onalarga ko‘tardi. Xususan, qashqar rubobchi sozandalardan Abbos Baxromov, Ergash Shukrullayev va Ari Boboxonovlar jahon yoshlar festivali g‘oliblari bo‘lishdi. O‘tgan asrda birin-ketin tuzilgan O‘zbekiston davlat filarmoniyasi qoshidagi «Shodlik», «Lazgi», «Go‘zal», «Zarafshon» va «Bahor» kabi ashula va raqs ansambllari, T.Jalilov nomidagi O‘zbekiston Davlat akademik xalq cholg‘ulari orkestri va O‘zteleradiokompaniyasi qoshidagi Yu.Rajabiy nomli maqomchilar ansambl, D.Zokirov nomli xalq cholg‘ulari orkestri, hamda so‘ngi yillarda cholg‘u ijrochiligi san’atiga salmoqli hissa qo‘sib kelayotgan «So‘g‘diyona» xalq cholg‘ulari Davlat kamer orkestri va ko‘plab viloyatlardagi turli ashula va raqs ansambllarining O‘zbekistonda va ko‘plab xorijiy mamlakatlardagi konsert faoliyatlarida ijrochilik san’ati, jumladan qashqar rubobi ijrochiligi ham targ‘ibot qilinib rivojlanmoqda. Yuqoridagi jamoalar tarkibida mashhur rubobchi sozandalardan E.Shukrullayev, S.Do’stov, A.Bahromov, B.Mirzaaxmedov, A.Xudoyqulov, S.Taxalov, A.Boboxonov, Q.Usmonov, X.Lutfullayev, T.Rajabov, B.Ziyamuxammedov, I.Irtayev, R.Karimov, O.Nazarov kabi sozandalar ijod qilishgan va ijod qilmoqdalar. Ijrochilik san’atini kompozitorlar va bastakorlar ijodisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘zbekiston kompozitorlarining qashqar rubobiga yozilgan maxsus asarlari, qashqar rubobi ijrochiligining yangi-yangi ufqlarini ochib bermoqda. Bu o‘rinda kompozitorlar M.Bafoyevning qashqar rubobi va orkestr uchun “Poema”, qashqar rubobi va orkestr uchun “Konsert”, I.Hamroyevning “Konsert”, O.Abdullahyaning qashqar rubob va orkestr uchun “Konsert”, X.Rahimovning “Navro‘z”, S.Hayitboyevning “Ballada”, M.Otajonovning qashqar rubobi va fortepiano uchun “Konsert”, T.Azimovning “Durdon” va mashhur rubobchi sozanda, bastakor M.Mirzayevning o‘nlab asarlarini alohida ta’kidlab o‘tish o‘rinlidir. Ta’kidlab o‘tganimizdek, qashqar rubob ijrochiligi nafaqat O‘zbekistonda, balki Xitoyning Shinjon viloyati uyg‘urlari orasida, qo‘sni Turkmaniston va Tojikiston davlatlarida ham mavjud bo‘lib, u yerdagi kompozitorlar ham bu borada salmoqli ijod qilmoqdalar. Tojik kompozitorlari S.Rustamov, Ya.Sabzanov, D.Do’smuxammedov va turkman kompozitori A. Xudoynazarov hamda uyg‘ur kompozitori A. Usmonlarning qashqar rubobi uchun yozilgan asarlari bizning sozandalarimiz tomonidan ham sevib ijro etiladi. Bastakor va mashhur rubobchi sozanda M.Mirzayev o‘tgan asrning 50-60 yillarida juda sermazmun ijod qilgan.

Ularning qashqar rubobi uchun yaratgan har bir asari xalq orasida tez ommaviyashib hozirgi kunda ham sevib ijro etilmoqda. Ustozning ham bastakor sifatida ham sozanda sifatidagi sermahsul ijodi qashqar rubobi sozini o‘zbek xalqining har bir xonadoniga olib kirdi. Qashqar rubobida farzandi Sh.Mirzayev bilan birlgilikda ijro etgan duetlari o‘zining takrorlanmas jozibasiga ega. Bastakorning aynan qashqar rubobi uchun bastalagan “Bahor valsi”, “Yangi tanovor”, “Zavqim kelur”, “G‘ayratli qiz”, “Marg‘ilon qizlari”, “Intizor etma”, “Gulrux”, “Orzu dil”, “Dil kuylasin”, “Visol” kabi o‘nlab musiqalari, nafaqat qashqar rubobi uchun yozilgan asarlar repertuarini boyitdi, balki qashqar rubobi ijrochiligining rivojlanishiga, kengayishiga, ijrochilik madaniyatining yuksalishiga, qashqar rubobining yangidan yangi ijro imkoniyatlarini ochilishiga sabab bo‘ldi. Qashqar rubobchi sozandalardan E.Shukrullayev va A.Bahromovning ijodi ayniqla sazovordir. Bu sozandalar qashqar rubobida ikki yo‘nalishda ijro etgan va jahon festivali g‘oliblari bo‘lish bilan birga o‘zbek san’atini boshqa mamlakatlarda namoyish qilgan dastlabki rubobchilardandir. Ularning sobiq Sovet Ittifoqi shaharlari bo‘ylab gastrollarda, O‘zbekiston san’ati va madaniyati dekadalarida qatnashishlari va o‘sha konsertlarda qashqar rubobida yakknavoz tarzda ijro etgan kuylari tahsinga sazovordir. Muhammadjon Mirzayevning taniqli shogirdlaridan biri O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Qobiljon Usmonov o‘zining ko‘p yillik ijodiy faoliyati davomida ijrochilik san’ati rivojiga salmoqli hissa qo‘shegan san’atkorlardan biridir. Dastlabki yozgan “Boshlang‘ich rubob darsligi” kitobi deyarli keyingi avlod rubobchilari uchun asosiy o‘quv qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi. D.Zokirov nomli xalq cholg‘ulari orkestridagi qariyb 40 yillik faoliyati davrida ko‘plab kuylarni, turli xil konsertlarda, televideniya va radio to‘lqinlarida ijro etgan. Qashqar rubobi ijrochiligidagi o‘z o‘rniga ega bo‘lgan mohir sozanda Adham Xudoyqulovdir. O‘ziga xos ijro uslubiga ega bo‘lgan bu sozanda ijro etgan har bir kuy texnik jihatdan murakkabligi, jozibasi va to‘laqonliligi bilan sozandalar va tinglovchilar diqqatiga sazovor bo‘lgan. Respublika radiosи fondiga ushbu sozanda ijrosida ko‘plab kuylar yozib olingan. O‘zbekistonda ko‘zga ko‘ringan qashqar rubobchi sozandalardan yana biri Ari Boboxonovdir. U M.Ashrafiy nomidagi Buxoro san’at bilim yurtidagi o‘zining ko‘p yillik pedagogik faoliyati davomida ko‘plab yetuk rubobchi sozandalarni tarbiyalash bilan birga doimiy ijrochilik faoliyatini ham olib borgan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek Jahon yoshlari festivali g‘olibi, Respublika yosh ijrochilar tanlovi g‘olibi, sobiq Ittifoq miqyosida o‘tkazilgan ko‘plab musiqa anjumanlarida, san’at dekadalarida tinglovchilar hamda mutaxassislarining olqishlariga sazovor bo‘lgan bu san’atkor, shashmaqom ijrochilagini mukammal egallash bilan birga zamonaviy kompozitorlar asarlarini ham ijro etgan sozandalardandir. Ustozning qashqar rubobi uchun bastalagan “Xurram”, “Feruza”, “Buxoro go‘zali” kabi asarlari juda mashhur bo‘lib rubobchilarning eng sevimli asarlaridan biriga aylangan. Bir necha bor Germaniyada

ijodiy gastrollarda bo‘lib, nemis tinglovchilari olqishlarini olgan. A.Boboxonov ijrosida yozib olingan ko‘plab kuylar O‘zbekiston radiosи oltin fondida saqlanmoqda.

Respublikamizning ko‘plab sozandalari ustozi, Toshkent Davlat Konservatoriyasining sobiq professori Sulaymon Taxalovning cholg‘u ijrochiligi san’atiga qo‘shgan hissasi salmoqlidir. S.Taxalov ijrochilik faoliyati bilan bir qatorda o‘zining pedagogik faoliyatları davomida T.Rajabiy, R.Qosimov, I.Ertoyev, B.Mirpayozov, B.Ergashev, R.Karimov, O.Nazarov, S.Do‘stov kabi o‘nlab yetuk ijrochi-sozandalarni tarbiyaladi. S.Taxalov ham ikki yo‘nalish, ya’ni ham an’anaviy ijro yo‘nalishini, ham akademik ijro yo‘nalishini mukammal egallagan san’atkordir. Uning ijrosidagi kuylar gramplastinkalarga va O‘zbekiston radiosи oltin fondiga yozib olingan.

Bundan tashqari, ustozi san’atkori M.Mirzayevning farzandi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, bastakor, mashhur rubobchi sozanda Shavkat Mirzayev qashqar rubob ijrochiligini tinimsiz rivojlantirib, targ‘ibot qilib kelmoqda. Ustozning ishlarini davom ettirib ko‘plab kuy va qo‘shiqlar bastalash bilan birga el sevgan xonandalar bilan doimiy hamkorlikda faoliyat olib bormoqda. Dunyoning o‘nlab mamlakatlarida o‘z san’atlarini namoyish etgan. O‘zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi maqomchilar ansamblida uzoq vaqt ijod qilgan ustozi M.Mirzayevning shogirdlaridan yana biri Turg‘un Avazov ham ko‘zga ko‘ringan mohir rubobchilardandir. Uning yorqin ijrochilik mahoratlari o‘ziga xos bo‘lib qashqar rubobida ijro etgan ko‘plab “Shashmaqom” namunalari O‘zbekiston radiosи oltin fondida saqlanmoqda.

Iste’dodli rubobchi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Tohir Rajabiyning ijro uslubi ulardan farq qiladi. U akademik yo‘nalish bilan bir qatorda an’anaviy ijro yo‘nalishlarini puxta egallagan san’atkorlardan biridir. Ularning ijrosida 100 dan ortiq kuy va qo‘shiqlar hamda kompozitorlar asarlari yakka rubob ijrosida, ansambllar, xalq cholg‘ulari orkestri va estrada simfonik orkestri jo‘rligida magnit lentalariga yozilib, O‘zbekiston radiosи oltin fondida saqlanmoqda. T.Rajabiy Vengriya, Germaniya, Rossiya kabi davlatlarda gastrollarda bo‘lib, o‘zlarining mohirona ijrolari bilan tinglovchilar olqishlarini olgan. Akademik uslub ijrochisi Bahodir Ziyamuxammedov O‘zbekiston davlat filarmoniyasi qoshidagi T.Jalilov nomli xalq cholg‘ulari orkestrida va Toshkent davlat konservatoriyasida uzoq yillar samarali ijodiy, pedagogik faoliyat olib borgan taniqli rubobchi va ko‘plab shogirdlarni tarbiyalagan ustozlardan biridir. Orkestr jamoasi tarkibida ko‘plab gastrol-konsertlarda, dekadalarda qatnashib, yakkaxon ijrochi sifatida o‘z san’ati orqali rubob ijrochiligini targ‘ib qilgan.

Shashmaqom asarlarini qashqar rubobida yuksak mahorat bilan ijro etgan rubobchi Rifatilla Qosimovdir. Hozirgi kunda Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa institutida professor R.Qosimov qashqar rubobi uchun yaratilgan bir nechta

o'quv qo'llanmalari muallifidir. U 1983 yilda bo'lib o'tgan 1-maqomchilar Respublika tanlovi g'olibi. Rubob ijrochiligin Iitaliya, Fransiya, Yaponiya kabi mamlakatlarda namoyish etgan. R.Qosimov ijro etgan asarlar o'zining yorqinligi va jozibadorligi bilan alohida ajralib turadi. Uning ijrosida shashmaqom asarlari gramplastinkaga va O'zbekiston radiosи oltin fondiga yozib olingan.

Musiqa maktabida yoshlarga tarbiya berish bilan birga ijrochilik faoliyatini ham olib borgan va ijrochilikda o'z o'mniga ega bo'lgan Murodilla Norqulov yetuk rubobchilardan biri edi. U ko'p yillar mobaynida O'zbekiston davlat filarmoniyasi qoshidagi "Zarafshon" ashula va raqs ansamblida faoliyat olib borgan. Umrining oxirigacha izlanib, samarali ijod qilgan mohir sozandalardan yana biri Abdulhamid Mirhamidov bo'lib, rubob, soz, manzur kabi cholg'ularda ansambl, orkestrlar jo'rлиgida bir qancha kuylarni maromiga yetkazib ijro etgan. Sozandalar va tinglovchilar tomonidan yuqori baholangan hamda doimo sevib tinglanadigan bu yozuvlar O'zbekiston radiosи oltin fondidan joy olgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Zamira Rahmatullayeva G'.Toshmatov nomli dutorchilar ansamblida uzoq yillardan beri ijod qilib kelayotgan sozandalardan biri. San'atkor o'z ijodi bilan ijrochilik san'ati rivojiga munosib hissalarini qo'shgan ayol rubobchilardandir.

O'zbekiston davlat konservatoriyasida yoshlarga ta'lim berib kelayotgan murabbiy, mohir rubobchi Bahodir Mirpayozov ijodi o'ziga xosdir. U T.Jalilov nomli o'zbek xalq cholg'ulari orkestrida samarali ijodi bilan ko'plab konsertlarda tinglovchilar e'tiborini qozongan. Tohir Turg'unov ko'p yillardan buyon O'zteleradiokompaniya qoshidagi D.Zokirov nomli xalq cholg'ulari orkestrida, keyinchalik «Tanovor» ansambli va Yu.Rajabiy nomli maqom ansamblida tinimsiz ijodiy faoliyat olib borgan rubobchi sozandalardan biridir. Bu sozanda ijrosida bir qancha asarlar Respublika radiosи oltin fondiga yozib olingan. O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi xalq cholg'ulari ansamblida keyinroq, D.Zokirov nomli xalq cholg'ulari orkestrida ijod qilgan sozanda Shamsiddin Nuriddinov o'z ijodlari bilan ko'zga ko'ringan rubobchilardan hisoblanadi. Sozanda tomonidan bir qancha bastakorlar asarlari notaga olingan va magnit tasmalariga tushirilgan. Respublika tanlovi sovrindori, ko'zga ko'ringan sozandalardan yana biri Rustam Karimovdir. O'zteleradiokompaniya qoshidagi D.Zokirov nomli xalq cholg'ulari orkestrida ko'p yillar davomida salmoqli ijod qilgan bu san'atkor ijrosida ham ko'plab asarlar magnit lentalariga yozilgan. Ijodiy safarlarda Fransiya, Qozog'iston, Germaniya kabi davlatlarda gastrollarda bo'lib, o'z san'atini namoyish etgan.

O'zteleradiokompaniya qoshidagi Yu.Rajabiy nomli maqom ansambli sozandası Ravshan Abduazimov ustozlar an'analarini davom ettirmoqda. U ijrochilik san'ati sirlarini o'rganib, uni rivojlantirishda o'z hissasini qo'shib kelayotgan yosh san'atkorlardan biri. Ijrochilik faoliyati bilan bir qatorda yoshlarga san'at sirlarini

ham o'rgatib kelmoqda. Hamza nomidagi Toshkent davlat musiqa kollejida yoshlarga rubob chalish sirlarini o'rgatib kelayotgan yosh murabbiylardan yana biri Respublika maqom ijrochilari tanlovi g'olib Mansur Voisov. An'anaviy yo'nalishda yuqori mahoratga ega bo'lgan bu sozanda bugungi kunda ustoz rubobchilar ishini davom ettirib kelmoqda. Aytish joizki, qashqar rubobi ijrochiligining rivojlanishiga Respublika miqyosida o'tkazilgan yosh sozanda ijrochilar Respublika tanlovi va Respublika maqom ijrochilari ko'rik tanlovlarining ahamiyati katta bo'ldi. Bu o'tkazilgan tanlovlar natijasida ko'plab quyidagi tanlovlar sovrindorlari, mohir sozandalar yetishib chiqdilar. Bundan tashqari 1983 yildan muntazam o'tkazilib kelinayotgan Respublika maqom ijrochilari tanlovlarida R.Qosimov, N.Lutfullayev, O'.Olloberganov kabi o'nlab rubobchi sozandalar yuqori o'rnlardan joy olganlar. Sozandalardan M.Mirzayev, A.Boboxonov, T.Rajabov, S.Taxalov, R.Qosimovlar ijro uslubi alohida maktab darajasiga ko'tarildiki, hozirgi kunda ijrochilikda asosan shu yo'nalishlarni kuzatishimiz mumkin. Mazkur taddiqot ishimizda yoritilgan o'qitish uslubiyoti, ijro uslublari, ijro bezaklari kabi ko'plab masalalar asosan hozirgi kunda qo'llanib kelinayotgan ustozlar ijro yo'nalishlari hamda ijrochilik tajribalari asosida yondoshildi.